UDK 902(575.1)

ROSSIYA MODDIY MADANIYAT TARIXI INSTITUTINING SAMARQAND VILOYATIDAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARIGA DOIR

Maxmudxon Yunusov,
PhD "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20560895

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 30–40-yillarida Samarqand viloyatida Rossiya moddiy madaniyat instituti ekspeditsiyalari, xususan G. V. Grigoryev rahbarligidagi tadqiqotlarning yo'nalishlari, Talibarzu, Baxshitepa va Frinkent yodgorliklaridagi qazishmalar, topilmalar tarkibi, muzey fondlariga topshirish amaliyoti hamda voha tarixiy topografiyasini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi, yoritiladi va baholanadi.*

Kalit so'zlar: *Rossiya moddiy madaniyat instituti, G. V. Grigoryev, Samarqand viloyati, Talibarzu, Baxshitepa, Frinkent, arxeologik qazishmalar, tarixiy topografiya, muzey fondlari, moddiy madaniyat, dafn marosimlari, zardushtiylik.*

Аннотация. *В статье анализируются экспедиции Института истории материальной культуры России в Самаркандской области в 1930–1940-х годах, прежде всего исследования под руководством Г. В. Григорьева, раскопки на Талибарзу, Бахшитепе и Фринкенте, состав находок, передача коллекций в музейные фонды и их значение для изучения исторической топографии области, материальной культуры и хронологии памятников.*

Ключевые слова: *Институт истории материальной культуры, Г. В. Григорьев, Самаркандская область, Талибарзу, Бахшитепа, Фринкент, археологические раскопки, историческая топография, музейные фонды, материальная культура, погребальные обряды, зороастризм.*

Annotation. *The article examines archaeological expeditions of the Russian Institute for the History of Material Culture in Samarkand Region during the 1930s–1940s, especially those led by G. V. Grigoryev, including excavations at Talibarzu, Bakhshitepa, and Frinkent, museum acquisitions, artifact assemblages, and their significance for historical topography, chronology, funerary practices, and regional archaeology.*

Keywords: *Russian Institute for the History of Material Culture, G. V. Grigoryev, Samarkand Region, Talibarzu, Bakhshitepa, Frinkent, archaeological excavations, historical topography, museum collections, material culture, funerary practices, Zoroastrianism*

Kirish. XX asrning 30-40 yillarida Samarqand viloyatida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda Rossiya moddiy madaniyat instituti bilan bog'liq ekspeditsiyalar, G.V. Grigoryev rahbarligidagi izlanishlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur tadqiqotlar Samarqand vohasidagi qadimgi va o'rta asr yodgorliklarini muntazam kuzatish, qazish, topografik qayd etish hamda topilmalarni muzey fondlariga tizimli ravishda topshirish amaliyotining shakllanishida alohida bosqich bo'ldi. Grigoryevning ishlari birgina alohida yodgorlikni tavsiflash bilan cheklanmay, balki vohaning tarixiy topografiyasi, moddiy madaniyati, dafn marosimlari, qadimgi sug'orma dehqonchilik hududlari va aholi joylashuvi masalalarini kompleks ko'rib chiqishga intilgani bilan ajralib turadi. Shu

jihatdan, mazkur ekspeditsiyalar Samarqand viloyati arxeologiyasida alohida yodgorliklarni qayd etish bosqichidan vohani yaxlit tarixiy-madaniy makon sifatida o‘rganish bosqichiga o‘tishning muhim ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni o‘rganishda asosiy manbalar sifatida O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalarining inventar kitoblari hamda G.V. Grigoryevning Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivida saqlanayotgan hisobot va kundaliklari xizmat qiladi. Ushbu manbalarda Talibarzu, Baxshitepa va Frinkent yodgorliklarida olib borilgan qazishmalar natijalari, topilmalar tarkibi va ularning muzey fondlariga topshirilishi haqida muhim ma’lumotlar jamlangan. Ayniqsa, G.V. Grigoryevning 1936–1938-yillardagi qazishmalar bo‘yicha hisobotlari Samarqand vohasining tarixiy topografiyasi, moddiy madaniyati va dafn marosimlarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, uning Frinkentdagi zardushtiylikka oid suyak saqlash majmuasi haqidagi maqolasi mazkur yodgorlikning ilmiy talqinini yorituvchi asosiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Mazkur manbalar Rossiya Moddiy madaniyat tarixi instituti ekspeditsiyalarining Samarqand viloyati arxeologiyasiga qo‘shgan hissasini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari inventar kitoblari, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivida saqlanayotgan G.V. Grigoryevning ekspeditsiya hisobotlari, kundaliklari va ilmiy maqolalari tashkil etadi. Manbalarni tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va manbashunoslik usullari qo‘llanildi. Shuningdek, Talibarzu, Baxshitepa va Frinkent yodgorliklarida olib borilgan qazishmalar natijalari o‘zaro qiyoslanib, ularning Samarqand vohasi tarixiy topografiyasi, moddiy madaniyati va dafn marosimlarini o‘rganishdagi ahamiyati baholandi. Tadqiqot davomida arxeologik topilmalar, muzey kolleksiyalari va arxiv hujjatlari kompleks tahlil qilinib, Rossiya Moddiy madaniyat tarixi instituti ekspeditsiyalarining Samarqand viloyatidagi ilmiy faoliyati yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Rossiya moddiy madaniyat institutining ekspeditsiyalari natijalarini baholashda, avvalo, Samarqand muzeyiga topshirilgan kolleksiyalar tarkibi muhim manba hisoblanadi. Ekspeditsiya davomida Baxshitepa, Talibarzu, Frinkent, shuningdek Urgut va Tayloq tumanlaridagi bir qator yodgorliklardan katta hajmdagi arxeologik ashyolar yig‘ilgan. Xususan, ekspeditsiya natijasida aniqlangan 1936-yilda Tayloq tumanidagi Baxshitepa yodgorligidan V–VIII asrlarga oid 259 ta sopol, shisha va metall buyumlar jamlangan kolleksiya[1.54-65] (A-54), 1936-yilda Samarqand tumanidagi Talibarzu yodgorligidan V–VIII asrlarga oid 1021 ta sopol buyumlar bo‘laklari.[1] (A-55) Samarqand muzeyiga topshirilgan va ro‘yxatga olingan. Talibarzu shaharchasidan

aniqlangan ilk temir davriga oid yirik arxeologik majmualar hududning siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi VIII asrga oid 2363 dona arxeologik ashyolar[2] (A-180) hamda 1431 dona buyumdan iborat ikkinchi kolleksiya[3] (A-181) hududda hunarmandchilik, savdo va xo‘jalik faoliyatining yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu raqamlar ekspeditsiyaning tasodifiy topilma yig‘ish bilan emas, balki yodgorliklarni xronologik, tipologik va hududiy jihatdan tizimlashtirishga qaratilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kolleksiyalarning muzey fondlariga topshirilishi ilmiy natijalarning muassasaviy xotiraga aylanishida muhim omil bo‘lgan.

Bundan tashqari, Frinkent yodgorligidan X–XIII asrlarga oid 97 ta sopol buyumdan iborat kolleksiya[4] (A-106) ham qayd etilgan. 1940-yilda vizual kuzatuvlar natijasida Urgut va Tayloq tumanlari hududidagi Qo‘shtepa, Chig‘izmontepa, Laylitepa, Mozartepa, Davlattepa, Guldurtepa, Mozortepa II, Ko‘l qishlog‘idagi Tepa-1, Jumabozor tepaligi, Navzandak va Ajakortepa kabi yodgorliklardan ham alohida kolleksiyalar[5] (A-260, A-270) to‘plangan (4-ilova). Bu holat Grigoryev ekspeditsiyalarining nafaqat qazishma, balki hududni dastlabki ko‘zdan kechirish, aniqlash va qayd etish hususiyatiga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, institut ekspeditsiyalari Samarqand viloyatidagi arxeologik obyektlarni yodgorliklar tarmog‘i va tarixiy landshaft tizimi doirasida tadqiq etgan. Bu esa keyingi yillarda voha miqyosidagi arxeologik xaritalash va tarixiy-topografik rekonstruksiya ishlari uchun muhim poydevor yaratgan.

Talibarzu yodgorligida 1937-1938 yillarda olib borilgan qazishmalar Samarqand viloyatidagi arxeologik tadqiqotlar tarixida ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qazishma haqidagi hisobotdan[6] anglash mumkinki, bu yerda ishlar rejalashtirilgan ilmiy qazishma ko‘rinishida olib borilgan, yodgorlikning topografiyasi, turli qazishma uchastkalari, madaniy qatlamlar tarkibi, me’moriy qoldiqlar va topilmalar tizimli ravishda qayd etilgan. Talibarzuda eng katta topilma guruhi sopol bo‘lib, G. Grigoryev sopol idishlarning qirralari, tag qismlari, devor bo‘laklari va boshqa shakllari asosida qatlamlarni davrlashtirishga uringan. Yozuvli sopol parchalari, jumladan arab yozuvidagi bitiklar tushirilgan namunalar ham topilgani,[7] yodgorlikning faqat xo‘jalik yoki turar joy markazi emas, balki So‘g‘dning markaziy shaharlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, Talibarzu materiallari Samarqand vohasidagi urbanizatsiya, ishlab chiqarish va madaniy aloqalar tarixini tiklash uchun ham muhim faktik asosdir. Aynan shu sababli Talibarzu qazishmalari viloyat arxeologik tadqiqotlarida metodik jihatdan ham, natijadorlik nuqtai nazaridan ham yetakchi o‘rin tutadi.

Talibarzu bilan bir qatorda, Baxshitepa yodgorligida 1936-yilda to‘plangan kolleksiya ham katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘ldi. V–VIII asrlarga oid 259 ta sopol, shisha va metall buyumlarni o‘z ichiga olgan kolleksiya (A-54) Baxshitepaning ilk o‘rta asrlar davri

moddiy madaniyatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi. Talibarzu va Baxshitepa materiallarini qiyosiy o‘rganish Samarqand vohasida bir-biriga yaqin hududlarda joylashgan manzilgohlar o‘rtasidagi madaniy-xronologik aloqalarni aniqlash imkonini bergan.[8] Shu jihatdan Rossiya moddiy madaniyat instituti ekspedtsiyasi Samarqand vohasi tarixini faqat Afrosiyob singari yirik markaz bilan emas, balki atrofdagi yodgorliklar tizimi orqali ham tiklashga xizmat qilgan. Bu esa vohada markaz va periferiya o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar, ishlab chiqarish hududlari va aholi joylashuvining ichki tizimini tadqiq etishda muhim ilmiy yo‘nalishni shakllantiradi. Shunday qilib, Baxshitepa materiallari Talibarzu kabi yirik markazlar bilan birgalikda voha tarixini ko‘p markazli model asosida talqin etish imkonini beradi.

1938-yilda Frinkentda olib borilgan qazishmalar esa ekspeditsiyaning yana bir muhim yo‘nalishini aks ettiradi. Ekspeditsiya hisbotiga ko‘ra,[9] Frinkent xarobasi Miyonqol hududida, Zarafshonning Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘ida joylashgan bo‘lib, tadqiqotchi uni keng tarixiy-landshaft majmuasi sifatida ko‘rib chiqqan. Yodgorlikning shahristoni oval shaklda bo‘lib, taxminan 14 gektar maydonni egallagani, mudofaa devorlari qoldiqlari 7–9 metrga, ayrim tepaliklar esa 17–23 metrga yetgani qayd etilgan. Frinkentdagi qazishmalar tasodifiy topilmalar, ya’ni kolxozchilar tomonidan yer tekislanishi jarayonida inson suyaklari va sopol parchalari topilishi ortidan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik rejalashtirilgan qazishmalarga aylantirilgan. Ekspeditsiyaning dastlab kuzatish, aniqlash va ro‘yxatga olish hususiyatida bo‘lgani, ammo keyinchalik Samarqand muzeyidan qo‘shimcha xodimlar jalb qilingani va topilmalar muzeyga topshirilgani 1930-yillar oxiridagi arxeologik ishlar Samarqand muzeyi bilan uzviy bog‘liq holda olib borilganini ko‘rsatadi. Bu holat institut ekspeditsiyalari bilan mahalliy muzey muassasalari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikning shakllanganini, ya’ni dala tadqiqoti va muzeylashtirish jarayonlari bir-birini to‘ldirib borganini ko‘rsatadi.

Frinkent qazishmalarining eng muhim natijasi zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog‘liq suyak saqlash majmuasi-nousning aniqlanishi bo‘ldi. Qazishmalar natijasida 63 kvadrat metr maydon ochilib, o‘rtacha 1 metr chuqurlikda 143 dan ortiq sopol idish ichida inson suyaklari, shuningdek ko‘plab alohida bosh suyaklari va boshqa suyak bo‘laklari qayd etilgan. Shu jihatdan Frinkent qazishmalari Samarqand viloyatida dafn marosimlari, zardushtiylik an’analari va sopol buyumlar tipologiyasini o‘rganishda ilk yirik tadqiqotlardan biri bo‘ldi. G. Grigoryev bu joyni maxsus rejalashtirilgan suyak saqlash inshooti sifatida talqin qilgan[10]. Mazkur topilmalar Samarqand vohasida diniy tasavvurlar, marosim amaliyoti va dafn bilan bog‘liq moddiy madaniyat masalalarini kompleks o‘rganish imkonini kengaytirdi. Shu bois Frinkent materiallari butun O‘rta Osiyo zardushtiylik arxeologiyasi doirasida ham muhim o‘rin egallaydi.

G.V. Grigoryev rahbarligida Rossiya moddiy madaniyat institutining Samarqand viloyatida olib borgan arxeologik ekspeditsiyalari viloyat arxeologik tadqiqotlari tarixida dastlabki tizimli bosqichlardan birini tashkil etadi. Agar Samarqand muzeyining 1935-1936 yilalrdagi tadqiqotlari kuzatuvlar va ro‘yxatga olishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, G. Grigoryev tadqiqotlari qazishma ishlari bilan birga olib borildi. Talibarzu, Baxshitepa va Frinkentdagi qazishmalar, shuningdek 1940-yilgi keng ko‘lamli vizual kuzatuvlar natijasida vohaning qadimgi manzilgohlari, ularning moddiy madaniyati, me’moriy qoldiqlari, dafn marosimlari va xronologiyasi bo‘yicha katta hajmdagi faktik material to‘plandi. Umuman olganda, Rossiya moddiy madaniyat tarixi instituti ekspeditsiyalari Samarqand viloyatida arxeologik izlanishlarning ilmiylashuvi, manbaviy bazasining kengayishi va yodgorliklarni muzey fondlari bilan bog‘lash amaliyotining mustahkamlanishida muhim rol o‘ynadi. Eng muhimi, ushbu tadqiqotlar Samarqand vohasi tarixini o‘zaro bog‘langan ko‘plab yodgorliklar tizimi orqali tiklash mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli mazkur ekspeditsiyalar natijalari bugungi kunda ham viloyat arxeologik merosini tarixiy-topografik, xronologik va madaniy jihatdan tahlil qilishda muhim ilmiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Rossiya Moddiy madaniyat tarixi instituti tomonidan G.V. Grigoryev rahbarligida Samarqand viloyatida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar XX asrning 30–40-yillarida voha arxeologiyasining ilmiy asosda rivojlanishida muhim o‘rin tutdi. Talibarzu, Baxshitepa va Frinkent yodgorliklarida olib borilgan qazishmalar natijasida Samarqand vohasining qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri tarixi, moddiy madaniyati, aholi joylashuvi hamda dafn marosimlariga oid qimmatli ma’lumotlar to‘plandi.Tadqiqotlar jarayonida topilmalarni tizimli ravishda qayd etish va muzey fondlariga topshirish amaliyoti shakllanib, viloyat arxeologik merosining manbaviy bazasi sezilarli darajada boyitildi. Ayniqsa, Frinkentdagi zardushtiylik bilan bog‘liq suyak saqlash majmuasining aniqlanishi diniy qarashlar va marosim amaliyotlarini o‘rganishda muhim ilmiy natija bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 4-inventar kitobi 54-65 betlar
2. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 7 sonli inventar kitob 1-155 betlar
3. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 66 sonli inventar kitob 36-139 betlar
4. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 65-inventar kitobi 1-37 betlar
5. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 36 sonli inventar kitob 6-44 betlar
6. Григорьев Г.В. Отчет о раскопках на городище Тали-Барзу в 1937 и 1938 г.г. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi. 1-fond, 1-ro‘yxat, 631-ish, 56 bet.

7. Григорьев Г.В. Дневники и другие матриалы раскопок городище Тали Барзу за 1938 год. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi. 1-fond, 1-ro‘yxat, 632-ish, 73 bet.
8. Григорьев Г.В. Материалы археологических раскопок 1936-1937 годов на Тали Барзу и Бахшитепе под руководством начальник экспедиции Григорьев Г.В. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi. 1-fond, 1-ro‘yxat, 630-ish, 153 bet.
9. Григорьев Г.В. Отчет о раскопках костехранилища огнепоклонников в Фримкент 1938 г. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi. 1-fond, 1-ro‘yxat, 634-ish, 126 bet.
10. Григорьев Г.В. Зароастрийское костехранилище в кишлак Фринкент по городам Самаркандом. ВДИ, №2, 1939 г. С.144-150